MAKTAB FIZIKA DARSLARIDA ZAMONAVIY AKT VOSITALARIDAN FOYDALANISHNING PEDAGOGIK AHAMIYATI

Xaydarova Lobar Halimovna
O'zbekiston Xalq demokratik partiyasi
Buxoro viloyat kengashi Yoshlar va xotin-qizlar bilan ishlash sektor mudiri
lobar.haydarova0305@gmail.com

Annotatsiya: Ta'lim jarayonida multimediyali o'quv qo'llanmadan foydalanish talabalarning aqliy faolligini rivojlantiradi, ta'lim jarayonini talabalar uchun tushunarli va qiziqarli qilish imkonini beradi.

Kalit so'zlar: fizika, fizik tushuncha, multimedia, interfaol, interfaol o'qitish uslubi.

ПЕДАГОГИЧЕСКОЕ ЗНАЧЕНИЕ ИСПОЛЬЗОВАНИЯ СОВРЕМЕННЫХ ИНФОРМАЦИОННЫХ СРЕДСТВ НА ШКОЛЬНЫХ УРОКАХ ФИЗИКИ

Хайдарова Лобар Халимовна
Народно-демократическая партия Узбекистана
Заведующая сектором молодежи и женщин Бухарского областного совета

Аннотация: Использование мультимедийного методического пособия в учебном процессе развивает интеллектуальную активность учащихся, делает учебный процесс понятным и интересным для учащихся.

Ключевые слова: физика, физическое понимание, мультимедиа, интерактив, интерактивный метод обучения.

PEDAGOGICAL SIGNIFICANCE OF USING MODERN IT TOOLS IN SCHOOL PHYSICS LESSONS

Khaidarova Lobar Halimovna
People's Democratic Party of Uzbekistan
Head of the youth and women sector of the Bukhara regional council

Abstract: The use of a multimedia instructional guide in the educational process develops the intellectual activity of students, makes the educational process understandable and interesting for students.

Key words: physics, physical understanding, multimedia, interactive, interactive teaching method.

KIRISH

Ta’lim tizimiga zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalari (AKT) imkoniyatlaridan foydalanishga asoslangan o’qitish usullarini joriy etish, OTM talabalari, o’qituvchilari va yosh tadqiqotchilarining jahon ta’lim resurslari, ilmiy adabiyotlarning elektron kataloglari va ma’lumotlar bazalariga kirish imkoniyatlarini kengaytirish vazifalari Respublikamiz Prezidentining «Oliy ta’lim tizimini yanada rivojlan tirish chora-tadbirlari to’g’risida» 2017 yil 20 aprelda qabul qilgan PQ-2909 raqamli qarorida belgilangan.

ASOSIY QISM

Yangi axborot texnologiyalaridan foydalanib, fizika fanidan ma’ruza tayyorlash va o’qitish uslubi o’quv jarayoniga kompyuterli o’qitish, nazorat qilish texnologiyalarini ishlab chiqish va qo’llashning tarkibiy qismi hisoblanadi. O’qitish va nazorat qilish dasturi tarkibi quyidagicha bo’ladi: ishchi dastur, elektron o’kuv qo’llanmasi, laboratoriya va amaliy mashg’ulotlar uchun metodik materiallar va topshiriqlar, animatsiyali ma’ruzalar, videoslaydlar, test materiallari.

Fizika fanining birinchi kirish ma’ruzasida o’qitish va nazorat qilish dasturi mazmuni, strukturasi, elementlari va u bilan ishlash uslubi bayon qilinadi.

Talabalar tavsiya qilinayotgan adabiyotlar ro’yxati, ishchi dasturi va baholash mezoni bilan tanishadi. O’qitish, nazorat qilish dasturi namoyish qilinadi[1-3].

Ma’ruzaning asosiy qismi–bu materiallarni savol bo’yicha videotasvir materiallari bilan birgalikda tushuntirishdan iborat. Bu o’rinda ma’ruzachini o’quv materialini tushuntirishda videomateriallarni tasvirlashni optimal uyg’unlikda olib borishi muhimdir.

Foydalanilayotgan videomateriallar turlicha bo’lishi mumkin: videoslaydlar, universal ofisli dasturlar elementlari va vositalari. Videoslaydlar – tushuntirilayotgan mavzuni ma’ruzachi tomonidan jadval, sxema, diagramma, grafik, matematik, fizik ifoda va modellar shaklida tayyorlanadigan asosiy nazariyholatlari lavhalaridan tashkil topadi.

Raqamli videotasvir texnika vositalaridan foydalanib ma’ruza o’tishni o’ziga xos filmga qiyoslasak, ma’ruzachi-o’qituvchi film rejissyori vazifasini bajaradi. O’qituvchining ishlash sifati oshadi va ishi jadallashadi[4].

Fizika fanining murakkab mavzulari yoki ma’lum bir bo’limi o’tib bo’lingach, ma’ruza mashg’ulotlari doirasida 20-30 minutga mo’ljallangan ko’rgazmali test o’tkazish maqsadga muvofiq bo’ladi. Bu usul quyidagi maqsadlarni ko’zlaydi:

- talabalar bilimini joriy, oraliq yoki yakuniy nazoratdan o’tkazishga psixologik tayyorlash;
- kompyuterli testlashtirish samaradorligini namoyish qilish;
- tayyorgarlik darajasini guruh bo’yicha nazoratdan o’tkazish

samarasini ko’rsatish;

❖ mavzuni talabalar tomonidan o’zlashtirilishi darajasini oldindan baholash.

An’anaviy usullarda ma’ruza o’qilganda bu kabi test sinovlari o’tkazish uchun imkoniyat bo’lmaydi. Ammo yangi axborot texnologiyalaridan foydalanib dars o’tilganda, ma’ruzaga ajratilgan bu vaqt mobaynida ancha ko’proq hajmdagi nazariy materiallarni o’zlashtirish imkoniyati tug’iladi. Shu sababli testlashtirish nazariy mashg’ulotni o’zlashtirishga ajratilgan vaqt hisobiga emas, balki axborot texnologiyalaridan foydalanish hisobiga tejab qolingan vaqtdan foydalanib o’tkaziladi.

Odatda qo’llanilayotgan doskaga yozish, plakatlar, kodoskop uchun slaydlar va boshqa ko’rgazmali vositalardan farqli ravishda, raqamli videoslaydlar na faqat ma’ruza o’qish paytida foydalaniladi, shuningdek talabalarga elektron variantlarda berilishi, ta’lim dargohining namunaviy serveriga kiritilib masofadan o’rganilishi, ya’ni ular saqlanishi, to’ldirilishi, ko’paytirilishi ham mumkin bo’ladi.

AKT dars jarayoniga kiritishning tashkiliy jihatlari:

1) Internetdagi turli xil begona materiallarning o’quvchilar diqqatini tortishiga, darsdan chalg’itishiga yo’l qo’ymaslik, Internet resurslaridan olib moslashtirilgan o’quv materiallari mazmuni, hajmi va didaktik yo’nalganligi DTS talablari doirasida bo’lishini ta’minlash;

2) har bir fan o’qituvchisi o’z fani bo’yicha Internet formatidagi uslubiy ishlanmalariga ega bo’lishini va OTM elektron kutubxonasi o’quv ma’lumotlari bazalariga joylashtirishni ta’minlash.

AKT dars jarayoniga kiritishning uslubiy jihatlari:

1) dars jarayonida o’qituvchi va o’kuvchilarning axborot yig’ish, tartiblashtirish ko’nikmalari shakllanadi, kompyuter savodxonligi oshadi;

2) dars jarayonini boshqarish, har bir o’quvchining qaysi saytlarda ishlayotganligini va darsdagi faolligini vizual va maxsus nazorat - monitoring dasturlari vositasida kuzatish va qayd etish imkoni bo’ladi;

3) dars jarayoniga qiziqarli materiallar, virtual tajribalar va virtual fizika olamiga sayohat qilish kabi faollashtiruvchi elementlarni kiritish, misol- masalalar yechishda Internet bepul servis dasturlaridan:

(F(xyz).ru, decoder.ru, convert-me.com/ru/ , Interactive Physics v.8.01) onlayn rejimida foydalanish, turli videotaqdimot materiallarini namoyish qilish va mavzu bo’yicha sinov nazoratlari o’tkazish imkoniyatlari paydo bo’ladi, dars sifati va talabalarning davomat darajasi keskin oshadi[6].

XULOSA VA MUNOZARA

Demak, ba’zi mavzu va bo’limlarni tushuntirishda nafaqat kompyuterlashtirilgan, shuningdek ma’ruzachi nutqi ham kiritilgan videoma’ruzalardan foydalanish mashg’ulot sifatini oshiradi. Shuni ham e’tiborga olish lozimki, video ma’ruzalarni

tayyorlash katta mehnat talab qiladi va kompyuter resurslariga yuqori talablar qo'yadi.

Bundan tashqari, biror bir video nutq ma'ruzachini jonli nutqi o'rnini bosa olmaydi. Shu sababli bunday ma'ruzalardan doimiy foydalanish ham maqsadga muvofiq emas.

Murakkab mavzularni tushuntirishda, yoki mavzuni ba'zi qismlarini tushuntirishda videoma'ruzalardan foydalanish yaxshi samara beradi.

Adabiyotlar ro'yxati:

1. A.A.Babariko, V.I.Korishev. Kasbiy malakali fizika o'qituvchisini tayyorlashda "Past haroratlar va o'ta o'tkazuvchanlik fizikasi" kursining o'rni. // "Texnologiya va fizika o'qituvchilarini tayyorlashda AKT" konferentsiyasi materiallari, Kolomna, 2017 yil.

2. Mamatqulov, B. X. Fizika o'qitish metodikasini ishlab chiqishdagi ayrim qonuniyatlar. Science Bulletin, 3(11), 54-57.

3. Mamatqulov B.X. Ijodiy fikr harakatining falsafiy asosi. Uzacademia ilmiy-uslubiy jurnali. 1-jild, 2-son, 2020-yil avgust

4. Asqarova, S. I. (2020). Terminology Of The Direction Of Language Contacts In Modern Linguistics. *Scientific Bulletin Of Namangan State University*, *2*(11), 234-239.

5. Askarova, S. I. (2019). Bilingualism and polylingualism: aspect of linguistics c

6. Askarova, S. (2020). German borrowings at the level of vocabulary in the conditions of Uzbek-German and Uzbek-Russian Bilinguism (In Conditions Covid-19). *European Journal Of Molecular And Clinical Medicine*, 2943-2953.

7. Askarova, S. (2023). ОСОБЕННОСТИ БИЛИНГВИЗМА В УСЛОВИЯХ ЯЗЫКОВЫХ КОНТАКТОВ. *Eurasian Journal of Academic Research*, *3*(2 Part 4), 190-194.

8. Kadirovna, A. D. (2022). ACTIVITY OF STUDENTS'COGNITIVE ACTIVITY IN TEACHING RUSSIAN LANGUAGE AND LITERATURE IS AN IMPORTANT FACTOR OF EDUCATION. *Web of Scientist: International Scientific Research Journal*, *3*(4), 799-802.

9. Kadyrovna, A. D. (2022). METHODOLOGICAL ASPECTS OF TEACHING THE RUSSIAN LANGUAGE. *Web of Scientist: International Scientific Research Journal*, *3*(10), 1295-1298.

10. Kadirovna, A. D., & Mahmudovna, A. D. (2022). CULTURE OF SPEECH OF THE TEACHER WHEN LEARNING RUSSIAN. *Web of Scientist: International Scientific Research Journal*, *3*(11), 891-894.

11. Адилова, Д., & Раджапова, Н. (2021). Развитие многоязычия в Узбекистане, выбор второго иностранного языка. *Общество и инновации*, *2*(5/S), 100-103.

12. Nazira, K., Siddikovna, T. G., Davranovna, D. A., Takhirovich, D. A., & Tulkinovich, O. S. (2021). Cardiovascular complications in patients who have had covid on the background of diabetes mellitus 2. *Central Asian Journal of Medical and Natural Science*, *2*(3), 37-41.

13. Гафурова, С. Ш., & Юсупхаджаева, С. Т. (2022). ТРЕВОЖНЫЕ-ФОБИЧЕСКЫЕ РАССТРОЙСТВА ПРИ СИНДРОМЕ РАЗДРАЖЕННОГО КИШЕЧНИКА И ЭФФЕКТИВНОСТЬ ПСИХОТЕРАПИИ И ПСИХОФАРМАКОТЕРАПИИ.

14. Юсупходжаева, С., & Гафурова, С. Ш. (2022). ЗНАЧЕНИЕ КОГНИТИВНО-БИХЕВИОРАЛЬНОЙ ПСИХОТЕРАПИИ ПРИ ТРЕВОЖНО-ДЕПРЕССИВНЫХ РАССТРОЙСТВАХ.

15. Gafurova, S. S., & Yusuphadjaeva, S. T. (2023). ANXIETY-PHOBIC DISORDERS IN IRRITABLE BOWEL SYNDROME AND THE EFFECTIVENESS OF PSYCHOTHERAPY AND PSYCHOPHARMACOTHERAPY. *International Bulletin of Medical Sciences and Clinical Research*, *3*(1), 110-115.

16. Yusuphodjaeva, S. T., & Gafurova, S. S. (2023). METHODS OF COGNITIVE-BEHAVIORAL PSYCHOTHERAPY IN THE TREATMENT OF RHEUMATOID ARTHRITIS. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, *3*(1-2), 701-706.

17. Erkin, E., Jamila, S., & Dilmurod, M. (2022). SCHIZOPHYLLUM COMMUNASI FR. ON THE TERRITORY OF UZBEKISTAN ISOLATION OF PURE CULTURE OF MEDICINAL FUNGUS. *Universum: химия и биология*, (6-4 (96)), 4-7.

18. Sherkulova, J. P., Mustafaev, I. M., Sharopova, M. A., Chariev, R. R., & Eshonkulov, E. Y. (2020). Micromycetes Of Class Leotiomycetes Distributed On Ornamental Trees Introduced In The Conditions Of The Southern Part Of Uzbekistan. *European Journal of Molecular & Clinical Medicine*, *7*(03), 2020.